

## APPLICATION OF SURKHAN KASHTACHILI IN INTERIOR DESIGN

Nozmiddinova Makhliyokhon Jamoliddinovna

Master of the Faculty of Light Industry Technology and Design,

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Prof. U.T.Mo'minova

Supervisor Ph.D.

### ANNOTATION

This article provides an overview of the history, types, symbolic meanings, and stages of development of embroidery. The role of Surkhan embroidery in Uzbekistan and its application in interior design are also briefly described.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kashtachilik tarixi, turlari, ramziy ma'nolari va rivojlanish bosqichlari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Shuningdek O'zbekistonda Surxon kashtachiligining tutgan o'rni va interer dizaynida qo'llanishi ham qisqacha ta'riflangan.

**Keywords:** Embroidery, handicrafts, art, geometric shapes, patterns, nationality, suzana.

### АННОТАЦИЯ

В этой статье представлен обзор истории, видов, символических значений и этапов развития вышивки. Также кратко описывается роль сурханской вышивки в Узбекистане и ее использование в дизайне интерьера.

### INTRODUCTION

“O'zbek milliy kashtado'zlik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi. Kashtachiligimiz san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan.

O'zbek chevar ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpich, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy, shuningdek Respublikamizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy san'atmuzeylarida ko'p namunalari to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan”<sup>1</sup>.

“Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlimi, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlari bilan birgalikda rivoj topgan. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga e'tibor bersak, unda hind, xitoy, rus, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiliklarining usullarini uchratamiz. Kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik shakl hamda gul naqshlari ko'p qo'llaniladi.

Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari-bo'lajak kelinchak seplari

bo'lmish har xil kashtachilik buyumlarini ya'ni dastro'mol, choyxalta, parda, belbog', sumka, nimcha, joynomoz, gulko'rpa, kirpich, zardevor, choyshab, so'zana, kiyim bezaklari va bosh kiyimlarini, sovg'alarni o'zlari tayyorlashgan. To'yda kuyovning qarindosh-urug'lariga kelin o'zi tikkan buyumlarini sovg'a qilgan. To'ydan oldin sep yoyib ko'rgazma qilinar, bu kelinning chevarligini, mehnatsevarligini namoyish etishi va kashta qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa yuqori baholanar edi. Qizlar juda yoshligidan boshlab kashta tikishga o'rgatilib, ular uch, to'rt yildan keyin mustaqil kashta tikishni boshlaganlar. O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib oilada kashta tikish bilan ayollar shug'ullanishgan. O'tmishda bu kashtalar oq va tabiiy malla shoyi, adras, hisoriga, baxmal matolarga tikilgan, keyinchalik satin, shoyi, baxmalga tikiladigan bo'ldi. Ish jarayonida ular o'z mahoratlarini oshirishgan, bir-biridan va kattalardan avlodlar tajribasini o'rganishgan.”<sup>2</sup>

O'zbekiston milliy kashtachiligi uy-joy ichki ziynatini, me'moriy bezak bilan bir qatorda, o'ziga xos tarzda to'ldiradi. Ko'plab asrlar davomida Buxoro, Urgut, Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Samarqand, Toshkent, Namangan, Piskentda kashtachilikning mahalliy badiiy uslubi va yirik markazlari yuzaga kelgan.

Kashtachilar katta matoga o'zlari chizgan naqshinkor kompozitsiyani igna bilan tikib chiqish uchun ko'p vaqt va mehnat sarflashadi. Kashtadagi naqshlar tabiat va atrof dunyo go'zalligining poetik in'ikosidir. Yirik dekorativ buyumlar- so'zana, palak, gulko'rpa, joypo'sh (taxmon parda), tokchapo'sh, kirpech, zardevor, joynamoz, ro'yjo va boshqalar doira, to'pbarggul (naqshi girdob), nozik-nihol gul, yaproqlar, qushlar, hayvonlar tasviri bilan naqshlanadi. Qo'lda tikiladigan dekorativ kashtachilik an'analari Urgut, Qo'qon, Buxoro, Toshkent, Qoraqalpoq va Surxon kashtachilari ijodida yashab, rivojlanib kelmoqda.

Surxondaryo kashtachiligi o'zining uzoq yillik tarixiga ega. Qadimda yosh qizaloqlardan tortib yoshi ulug' keksa ayollarimizgacha bayram to'y-hasham liboslarida, uyning devorlariga ilib qo'yilgan zardevoru so'zanalarda kashtachilik namunalari aks etgan. Surxon kashtalarida asosan islmiy naqshlarni uchratishimiz mumkin. Naqshlardagi bodom, anor, barg, butalar, o'simliklar, qushlar tasviri o'zining ma'lum bir ma'nosiga ega. Surxon kashtalarida ko'proq yorqin ranglar hukmronlik qiladi. Masalan mato ranglarini tanlashda qizil, sariq, qora ranglardan foydalansa naqshlarni tikishda sariq, zarg'aldoq, och qizil, binafsharang va to'q qizil ranglardan foydalaniladi.



a)



b)

1- rasm. a) anorning gullashdan so'ng mevaga kirgan holati; b) anorning yo'lsimon naqshda qo'llanilishi.

Ushbu xona intereri uchun mo'ljallangan "Anor" kompozitsiyasi Surxondaryo vohasining milliy naqsh elementlaridan foydalangan holda yaratilgan. Bu kompozitsiyada islmiy naqshlardan anor, bodom, o'simliklar va qushlar tasviri mavjud. Anor mevasi ilmiy adabiyotlarda keltirishicha tinchlik, to'kinlik, baxt va oila timsoli hisoblanar ekan. Bodom va qalampir kabi o'simliklar esa ko'z tegmaslik ma'nosini anglatadi. Undagi qushlarning nomi jannat deb ataladi. Jannat qushlari dunyodagi eng noyob qushlar hisoblanadi. Sababi jannat qushlari yer yuzida juda kam uchraydi. Jannat qushlari o'zining ko'rinishi, raqslari bilan insonlarni o'ziga jalb qiladi. Kompozitsiyada bu qushni qo'llashdan maqsad shuki, bu qush tashqi ko'rinishi noyobligi bilan ranglarning xilma-xilligi bilan e'tiborni tortadi. Anor ikki qavatli ichki va tashqi doirasimon shaklga ega. Birinchi tashqi doira ichiga anorni endi mevaga kirgan tasviri berilgan va bir-biriga ulanib, o'ralib ketadigan chirmovuqsimon, o'simliksimon naqshlarning takrorlanishidan hosil qilingan. Ichki doirasida esa anorning pishgan holati tasvirlangan bo'lib, atrofida jannat qushlari tasviri mavjud.



2-rasm. Xona intereri uchun mo'ljallangan "Anor" kompozitsiyasi  
a) Chizmasi b) tayyor holat

Yuqorida ta'kidlaganimizdek o'zbek kashtalari hind, xitoy, rus, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiliklarining usullari asosida boyib bordi. Bu kompozitsiyani yaratishda ham rus kashtachiligining ba'zi namunalari uchratishimiz mumkin. Ayniqsa kashtaning tikilish uslubi rus kashtalarining tikish uslubiga o'xshab ketadi. Qolaversa bu usulni nafaqat ruslar balki o'zimizning Samarqand, Buhoro milliy kashtalarida ko'rishimiz mumkin.

#### ADABIYOT

- 1) Istamov Z. S. Ning "O'zbek xalq amaliy san'atining rivojlanish bosqichlarini talabalarga o'rgatish metodikasi" nomli dissertatsiyasidan.
- 2) <https://hozir.org/kashtachilik-sanati-tarixi.html>. Kashtachilik san'ati tarixi
- 3) <http://ziyonet.uz> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.